

Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna

Namangan Davlat Universiteti

Yuridik fakulteti

Annotatsiya:

Ushbu ilmiy maqolada oila, oilaviy munosbatlarda qadriyatlar, ularni oila qonunchiligi bilan tartibga solish masalasi, milliy urf-odat va qadriyatlarimizning oilaviy munosabatlarda tutgan o'rni va ahamiyati, oilaviy munosabatlarni tartibga solishning huquqiy hamda konstitutsiyaviy asoslariga doir ma'lumotlar aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: *Oilaviy munosabatlar, farmonlar, konstitutsiya, qadriyat, adolat, insonparvarlik, strategiya .*

ПРАВОВАЯ ОСНОВА СВЯТОСТИ СЕМЬИ

Аннотация:

В данной научной статье собраны сведения о семье, ценностях в семейных отношениях, вопросе их регулирования семейным законодательством, роли и значении наших национальных традиций и ценностей в семейных отношениях, а также правовых и конституционных основах семейных отношений.

Ключевые слова: *Семейные отношения, декреты, конституция, ядерный, справедливость, правосудие, гуманистическое, человечество, стратегия.*

THE LEGAL FOUNDATION OF THE SANCTITY OF FAMILY

Abstract: *Family, values in family relations, the issue of their regulation by family legislation, the role and importance of our national traditions and values in family relations, information on the legal and constitutional bases of regulation of family relations are reflected in this scientific article.*

Key words: *Family relations, decrees, constitution, justice, humanitarian, strategy.*

Yangi O'zbekistonda oilalar va ulardag'i munosabatlarga yangicha yondoshuv shakllandi. Yangi O'zbekiston bunyodkori Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 7-fevral kuni xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash masalalariga bag'ishlangan yig'ilishida,-“Odamlarimiz bilishi kerak, oila muqaddas biz uchun. Oilani saqlab qolmasak, biz o'zligimizni yo'qotamiz” - deb ta'kidlaganlarida haq edilar.

Darhaqiqat, oilalar tarbiya maskani ekanligi barcha davr allomalari tomonidan e'riof etilgan.

Oilalarimizda an'analar, oriyatlarimiz, qadriyatlarimiz shakllanadigan maskandir. Oiladgi tarbiya jamiyatga ta'sir etadi, keljak, taraqqiyot uchun zamin yaratadi.

Nazariyotchi olimlarimiz fikrlarida, hayotni nikoh va oilasiz tasavvur qilish juda qiyin, buni normal hol deb bo'lmaydi, deb e'tirof etadilar. Chunki, nikoh va oila turmushning juda muhim qismidir. Agar ko'pchilik insonlar muhabbatli nikohga nisbatan yolg'izlikni afzal ko'rsalar, ular azobda qolishlari mumkin. Shuning uchun ham atrofdagilar nikohsizlikni, befarzandlikni hech mahal ma'qullamaganlar. Biroq keyingi yillarda ichida oilaning obro'si biroz yo'qotildi, milliy an'analarda ifodalangan "oila o'chog'i", "oila kengashi", "oilaviy qonunlar", "oilaviy samimiyat" degan ifodalar turmushimizdan deyarli chiqib ketmoqda.

Oila-hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urfatlarimizni saqlaydigan, chin inson bo'lib shakllanishda muhim rol o'ynovchi tarbiya o'chog'idir.

Necha ming yillik tajribalar ko'rsatishicha, oilaviy hayat odamzod turmush tarzining birdan-bir to'g'ri yo'lidir. Yolg'izlikda yashash-kemtik hayat, ruhiy-ma'naviy inqirozlarga hamrohlikdir.

O'zbekiston aholisining 98 foizi oilada oila a'zosi bo'lib yashaydi. Oila muhiti, uning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti o'lkaning keljak taraqqiyotida hal qiluvchi omillardandir. Shuning uchun oila atroflicha o'rganish, oila haqidagi statistik ma'lumotlarni jahon andozasiga talab beradigan tarzda takomillashtirish Respublikadagi muhim vazifalardan hisoblanadi

Oilani vujudga keltirish davridayoq an'analarimizga asoslanishimiz maqsadga muvofiq deb topildi. Bu qomusimizda va qonunlarimizda o'z aksini topdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan yangi taxrirdagi Konstitutsiyamizning 76-moddasiga asosan oila va uning muqaddasligi, an'ana va qadriyatlarimizga asoslanishi huquqiy asoslangan.

Asosiy qonunimizda bayon etilganidek, "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'naviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligidagi va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi. Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'naviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligidagi va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi."

Ko'rinib turibdiki, an'analarimiz konstitutsiyaviy mustahkamlanmoqda.

Shu bilan birga oilalarda farzandlarga bo'lган e'tibor va keksalarga bo'lган e'tibor ham o'z asosini topdi.

Bosh qomusimizning oltin normasi deya e'tirof etiladigan 80-moddasida "Voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga

majburdirlar.” Bu esa o’z navbatida bolalarning ham ota-onalari oldidagi majburiyatlarini Konstitutsiyaviy huquqi asosi sifatida belgilab qo‘yilgan. Zero, bizning urf-odat va milliy qadriyatlarimizning o’ziga xos jihatlaridan biri ham aynan farzandlarning ota-onalar oldidagi ulkan burchini bevosita hamda bilvosita bajarishida namoyon bo‘ladi.

Qadriyatlarimizdan yana bir asosiy jihatli qon-qarindoshlikni ijtimoiy va huquqiy asoslarini mustahkamlash hisoblanadi.

Qon-qarindoshlik-bu shaxslar o‘rtasidagi qon va qorin aloqasi bo‘lib, biri ikkinchisidan yoki umumiy ajdoddan kelib chiqqanligini bildiradi.

Qon-qarindoshlik oila huquqiy munosabatlarining vujudga kelishiga asos bo‘ladigan hollardan biri bo‘lgani uchun ham qonunchilikda o‘z yechimini topishi lozim edi. Bu vazifa ham bajarildi. Undan tashqari nikohdan o‘tishda uni man etadigan holatlardan biri nikoh tuzuvchilarining yaqin qarindoshlikda bo‘lishlidir. Shuning uchun unga to‘g‘ri ilmiy asoslangan tushuncha berish lozim edi, chunki hozirga qadar bu masalada chalkashliklar mavjud edi. Qonun bo‘yicha kimlarni qarindosh deb ataymiz va ular o‘rtasidagi huquq va majburiyatlar qanday vujudga keladi, degan masalalar o‘z yechimini topdi. Endilikda bu masala bo‘yicha ham oila qonunchiligiga aniqlik kiritildi.

Oila kodeksining 9-bobida qarindoshlik, qayin-bo‘yinchilik va quad andachilik munosabatlari huquqiy aksini topdi.

Barcha oilaviy qadriyatlar insoniyat tarixi, xozirgi yashash jarayoni va kelajagi bilanuzviy bo‘g‘liq hisoblanadi. Xalqaro hujjatlarda ham e’tirof etilgan. Oila munosabatlarini mustahkamlash Birlashgan Millatlar Tashkilotninig Bosh Assambleyasi “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 16-moddasida mustahkamlanib, shunday deyilgan: Balog’atga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati va diniga qarab biror bir cheklovlarsiz nikohdan o‘tish va oila qurish huquqiga egadirlar. Ular nikohdan o‘tayotganlarida ham, nikohda bo‘lgan vaqtida ham va nikoh bekor qilinayotganda ham bir xil huquqlardan foydalanadilar. Birlashgan Millatlar Tashkilotninig Bosh Assambleyasi 1994-yildan e’tiboran har yili 15 may kunini Xalqaro oila kuni sifatida nishonlashga qaror qilgani bejiz emas. Asosiy maqsad oila mustahkamligini taminlash va keljak avlodlarni barkamol o’sishlari uchun olaviy rishtalarni mustahkamligini ta’minalash, qarindoshlar bilan munosabatlarni shaffoflashtirishdir.

Oilalar barqarorligi davlat dasturlarida o‘z aksini topib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonida belgilab berilgan 7 ta yo‘nalishning beshinchi “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minalash va sohani yangi bosqichga olib chiqish” yo‘nalishi bo‘yicha 71-78-maqсадлarning mohiyati ham oilaning ma’naviy poydevorini mustahkamlashga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishslash,

mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 81-son Farmoni qabul qilindi.

Farmon ijrosini ta'minlash borasida davlat dasturlari qabul qilindi. Maxallabay ishslash yolga qo'yildi. Oilalarni ijtimoiy himoyasi uchun aloxida daftarlar yuritilmoxda.

Yangi O'zbekistonda xalqimizning azaliy milliy urf-odat va marosimlari qaytadan tiklana boshlandi, bu udumlar oilani mustahkamlashda muhim o'rinni egallaydi. O'zbekiston hukumati oila masalalariga davlat siyosati darajasida bajarilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifa sifatida qaraydi. Otalik, onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha boshqa bir qator qonun hujjatlari qabul qilinib, amaliy tadbirlar belgilangan.

Lekin, bu qadriyatlarni sui'iste'mol qiluvchi toifalar shakllanishi jamiyat illatlari mavjudligi alomati hisoblanadi.

Ayrim kimsalardagi boqimandalik kayfiyati, davlat va jamiyatdan juda katta miqdorda yordam so'rash va ijtimoiy foydali mehnat bilan band bo'lishni hohlamaslik, qarindoshlardan xabar olmaslik, ota-onalarni qadrlamaslik illatlari ham ko'zga tashlanmoqda.

Bundan tashqari, o'z farzandlarini sotish jinoyatlariga qo'l urishlari shunday illatlardandir.

2024 yil 15 fevralda bloger "Xushnudbek" ijtimoiy tarmoq orqali bergen axborotida Guliston shahrida o'tkazilgan tezkor tadbirda, Buxoro viloyatida tug'ilgan, Guliston shahrida vaqtincha yashovchi ayol joriy yilning 30-yanvar kuni tug'ilgan o'g'il farzandini 40 ming AQSH dollariga sotgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan ushlangani, Termiz tumanida yashovchi ayol 2024 yilning 25-yanvar kuni tug'ilgan qiz farzandini o'zining jinoiy sherigi bo'lgan ayol bilan til biriktirib, Termiz shahrida 25 mln so'mga sotgan vaqtlarida ushlangani, Chirchiq shahrida yashovchi ayol o'zining 2018-yilda tug'ilgan o'g'lini Toshkent shahrida 3 ming AQSH dollariga sotgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan qo'lga olingani, Namangan shahrida yashovchi ayol o'zining 2014-yilda tug'ilgan o'g'lini 18 ming AQSH dollariga sotishga kelishib, talab qilingan puldan 4 ming AQSH dollarini olgan vaqtida ushlangani haqidagi xabarlar insoniy qiyofasini yo'qotgan toifalar haqida ekanligini bildiradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-T., O'zbekiston" 2023. 120.b
2. O'zbekiston Respublikasi OILA kodeksi.T., "Yuridik adabiyotlar publish. 2022 y.208 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prizdent Farmoni, 01.03.2022 yildagi PF-81-s.
4. @xushnudbek.uz
5. Chuboyeva Ozodaxon PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS: a collection scientific works

PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

7 – TOM 2 – SON / 2024 - YIL / 15 - FEVRAL

of the International scientific conference (15 May, 2022) - Copenhagen:2022.
ISSUE 13 – 226 p. 94-99

6. Chuboyeva Ozodaxon Journal of Pedagogical Inventions and Practices ISSN NO: 2770-2367. <https://zienjournals.com>

7.Chuboyeva Ozodaxon Quvonchbekovna . The importance of “Kazilik adabi” in Abu Bakr Kasani’s work “ Badoi-us-sanoe”. International Scientific Journal ISJ Theoretical& Applied Science Philadelphia, USA issue 01, volume 81 published January 30, 2020